

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MAMAJANOV ABRORBЕК MIRABDULLAYEVICH

**AQLI RASOLIKNI ISTISNO ETMAYDIGAN TARZDA RUHIY HOLATI
BUZILGAN SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Мамажанов Аброрбек Мирабдуллаевич

Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslarning jinoiy javobgarligi.....3

Мамажанов Аброрбек Мирабдуллаевич

Уголовная ответственность лиц, страдающих психическим расстройством, не исключающим вменяемости.....21

Мамажанов Аброрбек Мирабдуллаевич

Criminal liability of persons with a mental disorder not excluding sanity.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MAMAJANOV ABRORBЕК MIRABDULLAYEVICH

**AQLI RASOLIKNI ISTISNO ETMAYDIGAN TARZDA RUHIY HOLATI
BUZILGAN SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Yu1242 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xaydarov Shuxratjon Djumayevich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), proffes v.b.

Rasmiy opponentlar:

Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor

Turg‘unboyev Elbekjon Odiljonovich
yuridik fanlar nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 23-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Saylgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; info@tsul.uz).

Dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1157 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: +99871 233-37-48

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 9-fevral kuni tarqatildi.

(2024-yil _____dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

M.K.Urazaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc),
professor

N.S.Salayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda xalqaro hamjamiyat, shu jumladan BMT tomonidan jinoyatchilikning oldini olishda jinoyat subyektiga alohida ahamiyat qaratish, jinoiy qilmish sodir etgan shaxslarning jinoyat sodir etish paytida ruhiy holati buzilganligi sababli o'z harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini ang'ay olish hamda ularni boshqara olish imkoniyatini aniqlash va baholash, aqli raso shaxslarning qilmishiga mos ravishda adolatli javobgarlikka tortish va jazo yoxud tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlash, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalalarini takomillashtirish zarurligi muntazam muhokama qilib kelinadi. BMT sharhlariga ko'ra jinoyatchilik axloqiy va tibbiy degradatsiya hosilasi bo'lib, unga qarshi kurashish nafaqat huquqiy vositalar bilan, balki ijtimoiy-tibbiy jihatlar bilan ham bog'liqligiga e'tibor qaratish lozim. Har yili dunyoda jinoiy qilmish sodir etganlarning 4,7%ga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini yoxud jinoiy jazo qo'llash bilan bog'liq bo'lmagan tibbiy choralar qo'llaniladi¹. Bu esa insoniyatning so'nggi chora sifatida jinoyatchilikka qo'l urishiga olib kelishining oldini olishga qaratilgan ilmiy-amaliy chora-tadbirlarni jadallashtirish vazifasini qo'ymoqda.

Jahonda jinoyatchilikka qarshi kurash, sudlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun qilmishga yarasha jazo tayinlash, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash zarurati mavjud shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish va aqli rasolik istisno etilmaydigan holatlarda ularga nisbatan jazo tayinlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, iqtisodiy taraqqiy etmagan davlatlar aholisining ommaviy tushkunligi, ishsizlikning yuqori darajasi, nasliy kasalliklar, nomunosib turmush sharoiti va boshqa ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tufayli depressiyaga tushishlari oqibatida inson ruhiyati bilan bog'liq jinoyatchilik dinamikasining ortishiga qarshi kurashish, cheklangan aqli rasolik holati va unga imkon bergan sabab va sharoitlarni oldini olish, cheklangan aqli rasolik holatida sodir etiladigan jinoyatlarni to'g'ri malakalash va uni sodir etganlik uchun javobgarlikni takomillashtirish, bu boradagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiyasini kuchaytirish sohasida tadqiqotlar o'tkazishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Mustaqillik yillarida respublikamizda ruhiy holati buzilgan shaxslar jinoyat sodir etganligi uchun javobgarlikni belgilash, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga ahamiyat berildi, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishga to'sqinlik qiladigan huquqiy bo'shliqlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu nuqtai nazardan, ruhiy holat buzilishlarini erta aniqlash, ularga tashxis qo'yish, ruhiy holati buzilgan shaxslarni davolash sifatini oshirish² hamda jinoyat qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish

¹ <https://www.un.org/development/desa/disabilities/wp-content/uploads/sites/15/2022/10/Access-to-Justice-EN.pdf>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-iyundagi "Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-196-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6505600>

tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish¹ sud-huquq sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qatorida belgilanib, bu sohani tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi (2021), «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi (2021) Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi (2022), «Sudtergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi (2017) farmonlari, «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2018) qarorlari va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni takomillashtirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilishi (cheklangan aqli rasolik) holatida sodir etiladigan jinoyatlarning jinoyat-huquqiy jihatlari, shuningdek ushbu qilmishlarning oldini olish masalalari juda ham kam o'rganilgan. Uning ayrim jihatlari mamlakatimiz olimlaridan M.H.Rustamboyev, R.A.Zufarov, R.Kabulov, A.Otajonov, S.S.Niyozova, K.B.Hakimov va E.Tadjibayevlar tomonidan o'rganilgan.

Aynan aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilishi (cheklangan aqli rasolik) holatida sodir etilgan jinoyatlarning jinoyat-huquqiy jihatlari o'rgangan chet el olimlari qatoriga Yu.M.Antonyan, R.A.Alixanov, S.V.Borodin, S.K.Burayeva, TS.A.Golumb, V.V.Guldan, A.Yu.Jambalova, A.V.Zaytsev, N.G.Ivanov, I.A.Kudryavtsev, D.R.Lunts, R.I.Mixeyev, G.V.Nazarenko, V.G.Pavlov, S.V.Polubinskaya, D.V.Sirojiddinov, O.D.Sitkovskaya, B.A.Spasennikov va boshqalarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Mavzuni turli jabhalarini o'rgangan xorijiy mamlakatlar olimlari qatorida A.V.Naumov, A.I.Dolgova, A.N.Leontev, V.V.Nagaev, I.A.Kudryavtsev, M.I.Enikeev, N.A.Podolny, N.F.Kuznetsova, O.D.Sitkovskaya, P.V.Grinvud, S.L.Rubinshteyn, E.F.Pobegaylo va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin². Ayni vaqtda, shuni tan olish lozimki, mazkur olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilishi (cheklangan aqli rasolik) holatiga asosan psixologik nuqtai nazardan yondashilganligi bois, mavzuning ko'pgina jinoyat-huquqiy jihatlari e'tibordan chetda qolgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

²USHBU OLIMLAR ASARLARI FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATIDA KELITIRILGAN.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi "Huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilishning innovatsion usul va vositalari" doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi cheklangan aqli rasolik institutining jinoyat-huquqiy jihatlarini kompleks o'rganish asosida aniqlangan muammolarning yechimini topish hamda mazkur jinoyatning oldini olishni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holat buzilishi tushunchasi, mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilish;

aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holat buzilgan shaxslar javobgarligining rivojlanish tarixini o'rganish;

xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslar jinoiy javobgarligi masalasini tadqiq qilish;

cheklangan aqli rasolikning yuridik va tibbiy mezonlarini yoritish;

aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlash masalalarini o'rganish;

aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlashning o'ziga xos jihatlarini o'rganish hamda jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini cheklangan aqli rasolik holatida sodir etilgan jinoyatlarga jazo tayinlash bilan bog'liq munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti cheklangan aqli rasolik holatida sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko'rinadi:

jinoyat sodir etish vaqtida nafaqat o'z harakatlarining, balki jinoiy harakatsizligining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va ularni boshqara olgan shaxs aqli raso shaxs hisoblanishi asoslangan;

jinoyat sodir etish paytida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlari (harakatsizligi)ning ahamiyatini to'liq darajada anglay olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortilishi lozimligi asoslangan;

jinoyat sodir etish paytida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlari (harakatsizligi)ni boshqara olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortilishi lozimligi asoslangan;

aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan jazo bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanishi mumkinligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

cheklangan aqli rasolik holatida jinoyat sodir etishni jinoyatni istisno qiluvchi holatlarda jinoyat sodir etganlikdan farq qilishi asoslab berilgan;

cheklangan aqli rasolik holatida sodir etiladigan jinoyatlarni profilaktika qilish chora-tadbirlari tizimi ishlab chiqilgan;

cheklangan aqli rasolik holatida odam o'ldirish va qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatlari obyektiv tomonining zaruriy va fakultativ belgilari bir xil ekanligi asoslangan;

cheklangan aqli rasolik holatida sodir etiladigan jinoyatlar inson ruhiyati bilan chambarchas bog'liqligidan kelib chiqib, jinoyat sodir etgan shaxslarni sud-psixiatrik va sud-psixologik ekspertizalaridan majburiy o'tkazish zarurligi asoslantirilgan;

tergov va sud xodimlarining malakasini oshirish dasturlariga cheklangan aqli rasolik holatida sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlash bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini kiritish zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyoti, sotsiologik tadqiqotlarning anketa, intervyu va ekspert baholash shakllariga asoslanganligi, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, jinoyat qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda jinoyat huquqi, jinoyat ijroiya huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida jinoyat huquqi va jinoyat ijroiya huquqi fanlarini o'qitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Cheklangan aqli rasolik holatida sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va uning oldini olish choralari ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jinoyat sodir etish vaqtida nafaqat o'z harakatlarining, balki jinoiy harakatsizligining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va ularni boshqara olgan shaxs aqli raso shaxs hisoblanishi to'g'risidagi taklif Jinoyat kodeksining 18-moddasi birinchi qismiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasining

2019-yil 11-oktabrdagi 05/3-06-109-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi jinoyat sodir etish vaqtida nafaqat o'z harakatlarining, balki jinoiy harakatsizligining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va ularni boshqara olgan shaxs aqli raso shaxs hisoblanishiga xizmat qilgan;

jinoyat sodir etish paytida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlari (harakatsizligi)ning ahamiyatini to'liq darajada anglay olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortilishi lozimligi to'g'risidagi taklif Jinoyat kodeksining 18¹-moddasi birinchi qismiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasining 2019-yil 11-oktabrdagi 05/3-06-109-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi jinoyat sodir etish paytida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlari (harakatsizligi)ning ahamiyatini to'liq darajada anglay olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortilishiga xizmat qilgan;

jinoyat sodir etish paytida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlari (harakatsizligi)ni boshqara olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortilishi lozimligi to'g'risidagi taklif Jinoyat kodeksining 18¹-moddasi birinchi qismiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasining 2019-yil 11-oktabrdagi 05/3-06-109-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi jinoyat sodir etish paytida ruhiy holati buzilganligi tufayli o'z harakatlari (harakatsizligi)ni boshqara olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortilishiga xizmat qilgan;

aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan jazo bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanishi mumkinligi to'g'risidagi taklif Jinoyat kodeksining 18¹-moddasi ikkinchi qismiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasining 2019-yil 11-oktabrdagi 05/3-06-109-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi nafaqat aqli noraso shaxslarga, balki aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan jazo bilan birga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. O'tkazilgan ilmiy tadqiqot yuzasidan olingan natijalar 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, shu jumladan, 2 ta xalqaro miqyosda va 3 ta Respublika miqyosda o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta monografiya, 9 ilmiy maqola dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini nashr etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda (2 tasi xorijiy nashrlarda) va 5 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'qqizta paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarining eʼlon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilishi tushunchasining umumiy tavsifi va rivojlanish tarixi”** deb nomlanib, ushbu bobda cheklangan aqli rasolik va unga oid tushunchalarning nazariy asoslari, aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holat buzilgan shaxslar javobgarligining rivojlanish tarixi, xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslar jinoiy javobgarligi masalalari tadqiq qilingan.

Ushbu bobda tadqiqotchi aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holat buzilishi tushunchasi, uning mohiyati va ijtimoiy ahamiyati, belgilari va boshqa emotsional holatlardan farqi, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida aqli rasoligi istisno etilmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslarning jinoiy javobgarligiga doir nazariy-huquqiy munozaralarni oʻrgangan.

Dissertant mavzu doirasida qator olimlarning fikrlarini tadqiq qilib R.I.Mixeyev va A.V.Mixeyevalarning fikrlariga koʻra, aqliy anomaliyalar – bosh miyadagi tugʻma yoki orttirilgan funksional yoki jismoniy oʻzgarish boʻlib, u subyekt aqliy faoliyatining turli jihatlarida aks etib, uning ijtimoiy ahamiyatdagi axloqining mazmuni hamda koʻrinishiga, shu jumladan, ijtimoiy xavfli xatti-harakatlariga taʼsir qilishini, TS.A.Golumbga koʻra sogʻlom fikrni istisno qilmaydigan ruhiy anomalliklar deganda mazkur shaxsning jinoyat sodir etishi paytida uni boshqaradigan hissiy-irodaviy yoki aqliy patologiyaning kuchi tufayli oʻziga hisobot berish imkoniyatidan mahrum qiladigan baʼzi ruhiy kasalliklari va psixikaning patologik holatlarini yoki ruhiy kasallik darajasiga yetmagan boshqa psixoplastik faoliyatni tushunishi qayd etilgan.

Yu.M.Antonyan va S.V.Borodinning fikriga koʻra, ruhiy anomaliyalarni aniqlashda quyidagi holatlarni hisobga olish kerak. Ruhiy anomalliklar qatoriga, avvalo, tugʻishgacha boʻlgan rivojlanishdagi buzilishlar, masalan, olegrofeniya va yadroviy yoxud konstitutsional psixopatiyalar bilan asoslanadigan barqaror xususiyatli tuzilmaviy yoki funksional ogʻishlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, bunday anomaliyalarga marginal psixopatiyalarni, patokarakterologik rivojlanishlarni, shikast etiologiyaning markaziy asab tizimiga organik zarar yetkazish qoldiq hodisalarini va boshqalarni kiritish mumkin.

Shuni taʼkidlash kerakki, ruhiy kasalliklar asabiylashish, hissiy muvozanatsizlik, jizzakilik, jahldorlik, shafqasizlik, tajovuzkorlik kabi xarakterli

xususiyatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida irodaviy harakatlarni boshqarish darajasining pasayishiga sabab bo'ladi. Ular muayyan bir faoliyat turi bilan mashg'ul insonning hayotiga xalaqit beradi.

Albatta, yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning ruhiy kasalliklar tushunchasi haqidagi fikrlariga qo'shilmasdan bo'lmaydi. Biroq shuni yodda tutish kerakki, ruhiy kasallik birinchi navbatda tibbiy tushuncha bo'lib, u tibbiyot tomonidan o'rganiladigan muammolardan hisoblanadi. Yuridik fan doirasida «ruhiy kasal» tushunchasi shaxsning ijtimoiy-xavfli ahvoli oqibatida ijtimoiy-xavfli qilmish sodir etishi bilan aloqador ekanligi sababli qo'llaniladi. Shuni qayd etish kerakki, psixiatr olimlar ruhiy kasallarni kriminologik jihatdan o'rganishda jiddiy yordam bermoqda. Biroq ko'p asrlar davomida ruhiy kasallar bilan shifokorlar emas, balki har kim, ruhoniylar, rohiblar, faylasuflar shug'ullanib kelgani ma'lum. Bemorlarni toshbo'ron qilishar, olovda yondirishar, umrbod qamoqqa tashlar edilar. Ruhiy bemorlardan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish maqsadida ularni kimoshdi savdolarida sotishar edi. Ruhiy kasallarga nisbatan bunday g'ayriinsoniy munosabat o'tgan asrning o'rtalarida ham davom etgan. Bunga fashistlar Germaniyasida tomonidan o'ldirilgan 200 ming nafar ruhiy kasalni misol sifatida keltirish mumkin.

Ishda muallif bugungi kunda psixiatriya fani tomonidan ruhiy nosozliklarni tasniflash uchun turli xil variantlar taklif etilishini ta'kidlab, ularning quyidagi tasnifini keltirgan – Majmuaviy mezonlarga ko'ra: Yuzaga kelish xususiyati bo'yicha: konstitutsional (tug'ma); orttirilgan.

Ruhiy o'zgarishlarning tabiati bo'yicha: haqiqiy anomalliklar (masalan, psixopatiya); psevdanomaliyalar (ya'ni boshqa ruhiy kasalliklar tufayli kelib chiqadigan).

Ruhiy kasalliklarning ustuvorligiga ko'ra: intellektual; irodaviy; hissiy guruhlari nisbatan o'zlashtirilgan hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan ruhiy anomaliyalarni guruhlarga bo'lish va ularni psixiatriya amaliyotida tarqalish tamoyiliga muvofiq tavsiflashga harakat qilungan. Biroq ruhiy anomaliyalarni tasniflash hamda tahlil qilishda biz mazmuniga ko'ra ruhiy kasalliklar tushunchasiga mos keluvchi keng ma'nodagi kasalliklar haqida to'xtalib o'tilganki, shaxs baribir aqlan zaif deb e'tirof etilgan ayrim surunkali ruhiy kasalliklar ham tahlil qilinadi. Bu yerda so'z shizofreniya, epilepsiya kabi ruhiy kasalliklar haqida ketmoqda.

Shizofreniyaning ikkinchi shakli remissiyalar bilan ajratilgan xurujlar bilan tavsiflanadi: kasallik sust paytida shaxsning progressiv o'zgarishlari aniq ko'zga tashlanadi.

Rekurrent (davriy) shizofreniyaga takroriy hurujlar xos bo'lib, bu esa qo'pol salbiy o'zgarishlarga olib keladi va ularning o'rnini chuqur remissiyalar egallaydi. Eng xarakterli narsa – bu qoralash, sahnalashtirish va hokazolar kabi depressiv-paranoid hurujlardir. Shizofreniya tashhisini shaxsning asta-sekin o'zgarib borishi, shuningdek, fikrlashning buzilishi, aqliy avtomatizm fenomeni mavjudligi osonlashtiradi. Shizofreniyani davolash kasallikning klinik ko'rinishi, kechishi, bosqichiga bog'liq. Bemorlarning moslashishini buzadigan va kasalxonaga yotqizishni talab qiladigan og'ir ruhiy holatdarda psixotrop dorilar, shuningdek,

shokni davolash usullari qo'llaniladi. Kasallikning rivojlanishi dastlabki bosqichda bo'lgan hollarda, medikamentoz davolash psixoterapiya va ishlash terapiyasi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Yarim asrdan ko'proq vaqt davomida shizofreniya bilan og'rigan bemorlarning aql-idrokiga oid savol vaqti-vaqti bilan mahalliy va xorijiy psixiatrlarning munozaralariga aylandi. 1938-yilda sobiq SSSRda ushbu masalaga bag'ishlangan ikkita asar nashr etildi. Ulardan birining muallifi D.Amenitskiy shezofreniyada shaxsning aqli rasoligi-aqli raso emasligi haqida gapirish imkoniyatini beradigan shaxsni saqlab qolish darajasini uning hayotga va mehnatga faol moslashishini, aqliy nuqsonlar uchun tegishli kompensatsiya bilan muayyan ijtimoiy aloqalarni o'rnatilishiga imkon beradigan mezonlar sifatida ko'rib chiqadi. Boshqa bir asar muallifi A.Xaletskiy shaxsiyat birligi, harakatlar motivatsiyasini saqlab qolish belgilarini (jinoyat motivlarining aniqligi, o'z kasalligini nisbatan to'g'ri tushunish, ijtimoiy tuzilishning faol yo'nalishi) shizofreniyada aqlning mezonlari sifatida ko'rib chiqishni taklif qildi. So'nggi o'n yilliklarda shizofreniyadagi aqli rasolik masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu sust kechadigan shizofreniya bilan kasallanganlar sonining ko'payganligi bilan bog'liqdir.

Aksariyat hollarda shizofreniya bilan og'rigan bemorlar aqli zaif deb e'tirof qilinadi, zero kasallikning rivojlanishi, ayniqsa uning aniq shakllari, avvalgi ijtimoiy aloqalarning yo'qolishiga, aqliy faoliyatning pasayishiga olib keladi. Bizning holatimizda, shizofreniyani alohida ruhiy anomaliya sifatida ajratish shizofreniya xarakterli simptomatologiyasi yuqori darajaga yetmagan holatlar bilan bog'liq, shuning uchun bu holatlarda aqli rasolik inkor etilmaydi. Garchi, bir qator belgilar uchun aql-idrokni to'liq deb atash mumkin emas. Shuning uchun, biz faqat cheklangan aql rasolik haqida gapirishimiz mumkin.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, insonning tug'ilgan sanasi va unda bir qator kasalliklarning paydo bo'lishi ehtimoli o'rtasida bog'liqlik mavjud. Yanvar, fevral va mart oylarida tug'ilganlar yozda va kuzda tug'ilganlarga qaraganda

10% ko'proq shizofreniya bilan kasallanishadi. May oyida tug'ilganlar esa, ko'pincha mavsumiy depressiyadan aziyat chekishadi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, shizofreniya uchun asosiy xavf omillari quyidagilardir: tug'ilish paytida bo'yining past bo'lishi (49 santimetr gacha) va 7 yoshgacha bo'lgan davrda ozg'in bo'lish. Bunday bolalarda shizofreniya xavfi to'rt barobar ortadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oligofrenlar ko'pincha mulkiy jinoyatlar (asosan o'g'irlik va talonchilik) sodir etishadi. Muallifning ta'kidlashicha O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 181-moddasi ta'siriga eng ko'p tushadiganlar oligofrenlar hisoblanishadi. Ahmoqlik aqli zaiflikning eng yengil darajasidir. Ahmoqlikdan aziyat chekayotgan shaxslar odatda tayanch maktabni tamomlaydilar, ular mustaqil hayot kechirishga qodir bo'ladilar. Bunday odamlarda fikrlashning aniq tavsiflovchi turi ustun turadi, mavhumlik qobiliyati deyarli yo'q. Umumiy aqliy rivojlanishning qotib qolishi va fikrlash darajasi past bo'lgan ahmoqlikdan aziyat chekayotgan ayrim bemorlar uchun hatto qisman iqtidorlilik (masalan, ongda murakkab arifmetik operatsiyalarni bajarish qobiliyati) ham xos bo'ladi.

Tadqiqotchi Hozirgi kunda psixopatiyaning astenik (ruhiy zaif), psixastenik,

shizoid, paranoik, qo'zg'aladigan, isterik, affektiv, beqaror kabi turlari eng keng tarqalgan tasniflardan hisoblanadi. Biroq psixopatiyani biologik ajratishdan tashqari, uni ya'ni o'zlarining aqliy raso bo'lmaganidan aziyat chekuvchan shaxslar guruhi va jamiyatni aziyat chekishga majburlaydigan shaxslar guruhi kabi ijtimoiy asosni ham e'tibordan qoldirmaslik lozim. Shunisi muhimki, birinchi guruh o'zlari shifokorga boradigan va yordam izlaydigan toifa bo'lsa, ikkinchisi, aksincha, ko'pincha sud organlarining qistovi bilan shifokorlarga boradiganlardan iborat. Ikkinchi guruhdagilarni har doim u yoki bu aqliy nuqsonlarni aniqlash kabi omillar birlashtiradi, deb hisoblaydi.

Tadqiqot doirasida erkinlik to'g'risidagi falsafiy qarashlar ta'sirida 1810-yilda Fransiyaning Jinoyat Kodeksida ilk marotaba aqli rasolikning: "agar shaxs jinoyat sodir etgan paytda aqlsizlik holatida bo'lgan bo'lsa, jinoyat ham, harakat ham yo'q" degan qonuniy ta'rif paydo bo'ldi. Aqli ojizlik ("jinnilik")ka faqat tibbiy mezonlar bo'yicha qonuniy ta'rif berilgan edi xolos. Biroq ilmiy asoslash unda huquqiy mezonlar ham mavjud bo'lishini nazarda tutar edi. Kodeksga berilgan sharhlarda jazolanadigan shaxs uchun "qilmishni sodir etishda uning irodasi faollik darajasi"ni, jinoyatni sodir etgan shaxsda, agarda "o'zining aqliy qobiliyatlari ko'lamidan foydalanmagan bo'lsa" jinoyat alomatlarining yo'qligini aniqlash zarurligi ko'rsatilgan edi. Ushbu me'yoriy norma Yevropa mamlakatlarining qonunlarida qayta qabul qilingan va to'ldirilgan edi (Bavariya JKda 1813-y., Brushveyg JKda 1840-y., Saksen-Altenburg JKda 1841-y., Belgiya JK 1863-y.). Masalan, 1971-yildagi Germaniya JK "ruhiy faoliyatning kasallik alomatlari oqibatida irodani erkin ifodalash mumkin bo'lmaganda" qilmishga nisbatan jazo yo'qligi tahlil qilingan.

Ishda qayd etilishicha 1905-yilda Gamburgda bo'lib o'tgan syezd bu boradagi keskin burilish bo'ldi va uzoq yillar davomida ko'rib chiqilayotgan toifadagi shaxslarga ta'sir choralari to'g'risidagi munozarani oldindan belgilab qo'ydi. F.List o'z ma'ruzasida "jinoyat sodir etgan ruhiy kamchiligi mavjud shaxslarga nisbatan ta'sir choralari ikki yoqlama bo'lishi lozim"ligini ta'kidlaydi, chunki insonga ikki xil qarashlar orqali, ya'ni aql-idrok darajasi (kamaytirilgan jazo) va uning ijtimoiy xavflilik darajasi nuqtai-nazaridan yondashiladi.

Biroq munozaralar jarayonida syezd qatnashchilari ikkita taraf (lager)ga bo'lindilar. "Fransuz guruhi" tarafdorlari shifokorning sof ta'siri uchun jazoni kesib tashlashni bayon etdilar, chunki fan aqli norasolarni jazolashdan (Prins) voz kechishi kerak, ular jazoni nisbatan kam his etishadi va kasallik rivojlanib

boradi (Torp), agarda ular ko'p yillik shifokorlarning ta'siriga tushib qolsalar, qamoqxonadagi bir necha kun-oy ahamiyatga ega emas (Ashafenburg), aqli norasolar va aqli rasolar uchun bir xil rejim va qochib ketishning oldini olish choralari qo'llanilishi kerak (Leppman).

"German guruhi" tarafdorlari (Lipman, Frank, Kulemann) F.Listni qo'llab-quvvatlagan holda choralarning har biri alohida maqsadga egaligi, ya'ni jazo – repressiya qilish, qo'rqitish, umumiy ogohlantirish; tibbiy ta'sir ko'rsatish – ijtimoiy oldini olish maqsadlariga ega ekanligiga e'tibor qaratadi.

Van Gamel aqli rasolik, jinoyat va jazoning mavhum tushunchasidan voz kechgan holda, ancha keskin qarashlarni bayon etdi. So'z "aqli rasolik to'g'risida emas, balki jinoyat moyillikni ifodalaydigan ruhiy kamchilik" haqida, jazo

to'g'risida emas, balki shifokor ta'siri xususida ketmoqda, aqli rasolik tushunchasi bu yerdan olib tashlangan, va nihoyat jinoyat sodir etish ushbu choralarning qo'llashning zarur asosi emas – bitta chora yetarli, boz ustiga u ushbu shaxslarga noma'lum hukmlarni qo'llashni taklif etd. Rezolyutsiya bo'yicha yuzaga kelgan keskin munozaralardan so'ng 1905-yilda ruhiy kamchiliklarga ega bo'lganlarga Lyublinning qat'iy e'tiroziga ko'ra, "har qanday qarash tarafdorining nima xohlashini ko'rish imkoniyatini beradigan "maxsus jazo yoki maxsus rejimni" qo'llashning aniq bo'lmagan tarifi bilan chegaralanib qoldilar.

Tadqiqotda huquqshunos olimlar va psixologlar tomonidan mazkur tushunchani baholashga qaratilgan turli ta'riflarni tahlil qilib, bu borada ilmiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas degan xulosaga kelgan. Shulardan kelib chiqqan holda, cheklangan aqli rasolikning o'ziga xos mazmuni uni insonning barcha ruhiy faoliyatiga, ayniqsa uning anglash darajasiga ta'sir ko'rsatishida hamda shu belgi orqali boshqa ruhiy kechinmalardan ajralib turishida ko'rinadi.

Cheklangan aqli rasolikni psixologik jihatdan o'rganib chiqish o'z ichiga uni vujudga kelishiga ko'maklashuvchi shart-sharoitlar va omillar tahlilini ham qamrab olishi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur holatlarga cheklangan aqli rasolikni vujudga kelishiga imkon beruvchi holatlar; shaxsning yoshi va boshqa o'ziga xosliklari; asab tizimining xususiyatlari; inson organizmini vaqtinchalik zaiflashtiruvchi omillar hamda boshqalarni kiritish mumkin.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlarda ma'lum bo'ldiki, cheklangan aqli rasolikning muhim belgilaridan biri bu uni shaxsni ongli o'zini o'zi boshqaruvini to'la amalga oshirishiga imkoniyat bermasligidir. Bu "subyektning shaxsiy qobiliyati (quvvati)" tushunchasi bilan izohlanadigan hodisa bilan bir vaqtda yuz beradi. Bu tushuncha sud-psixologik ekspertizasida "yuridik ahamiyat kasb etuvchi subyektning shaxsiy ijtimoiy qobiliyati (quvvati)" sifatida izohlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Cheklangan aqli rasolik mezonlari**"ga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda cheklangan aqli rasolikning yuridik va tibbiy mezonlari kabi masalalar tahlil etilgan.

Muallifning fikricha, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 18¹-moddasi matnidan kelib chiqib faqatgina ikkita – tibbiy va yuridik mezonlarning mavjudligi cheklangan aqli rasolik to'g'risida gapirish imkoniyatini beradi. Tibbiy mezon – faqatgina dastlabki cheklangan aqli rasolik, huquqiy mezon esa, ushbu mezonning asosiy moddiy-huquqiy ahamiyatini belgilaydi. Ushbu qoida prinsipial xususiyatga ega, zero cheklangan aqli rasolikni psixik anomaliya mavjudli omilini shaxsning jinoyat sodir etish paytidagi onglilik-irodaviy bilan to'liq o'xshatadigan ilmiy adabiyotlardagi xato nuqtai nazarlar uchrab turadi.

Yuridik mezonlarni pisand qilmaslik psixiatriya va huquq tarixida juda katta salbiy oqibatlariga ega bo'lgan va shunga olib kelganki, ruhiy buzilishi bo'lgan deyarli barcha shaxslar aqli noraso yoki "cheklangan aqli raso" deb e'tirof etilgan.

Hozirgi vaqtda ruhiy buzilishning mavjudligi hali cheklangan aqli rasolik to'g'risida gapirishga imkoniyat bermaydi, buning uchun aqli rasolikda bo'lgani kabi, yuridik mezonlarini - shaxsning o'z hatti-harakatlarini tushunish yoki jinoyat sodir etishda unga amal qilishning to'liq qobiliyati bo'lmaganligini o'rnatish zarur.

Dissertatsiyada tahlil qilingan ko'plab mualliflarning fikriga ko'ra "o'zining hatti-harakatlari (harakatsizligi)ning amaldagi xususiyatlari va ijtimoiylikini to'liq

ravishda anglay olmaslik” degan qonuniy ta’rif juda aniq bo’lgan holda turlicha talqin qilishlarga imkoniyat beradi. Ilmiy va amaliy sohada “O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 18¹-moddasini qo’llashni qiyinlashtirayotgan anglashning qaysi darajasini to’liq va qaysi darajasi to’liq bo’lmaganligini hisoblashning “bir xil va “aniq mezonlari” mavjud emas.

Ushbu qonunchilik tuzilmasini tushunish uchun cheklangan aqli rasolik mezonining yuridik mohiyatiga va eng avvalo, anglash va irodaning “to’laqonli bo’lishi”ga ta’rif berish kerak. Albatta, ushbu baholovchi mezonning mutlaq ta’rifini berish imkoniyati yo’q, biroq uni maksimal ravishda aniqlashtirish hamda muayyan chegaralar va uni tushunishning mo’ljallarini belgilash mumkinligi bayon qilingan.

Cheklangan aqli rasolik tushunchasi ostida ruhiy buzilish oqibatida shaxsning jinoyat sodir etishdagi ongli-irodaviy xulqqa qodirligi ancha kamaygan (cheklangan) aqli rasolikning har xilligini tushunish kerak bo’ladi. Faqat shunday holatda cheklangan aqli rasolik jazoni tayinlashda jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo’ladi. Binobarin, O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 18¹-moddasi 1-qismida keltirilgan “to’liq darajada anglay olmaslik” ifodasi, faqat shaxsning anglash-irodaviy xulqqa qodirligi ancha kamaygan (cheklangan) holatdagina jazo qo’llash uchun huquqiy ahamiyatga ega bo’ladi.

Sud-psixiatriya adabiyotida yuridik mezonning tavsifiga nisbatan ko’proq e’tibor qaratiladi. I.A.Kudryavtsevning fikriga ko’ra, “to’liq ravishda anglay olmaslik” tushunchasi “o’z hatti-harakatlarining amaldagi xususiyatiga” nisbatan qo’llanilganda atrof-muhitni anglashning yetarli bo’lmagan aniqlik (adekvatlik)ni, holatni, o’z hatti-harakatlarining obyektiv mazmunini, o’z axloqining mavjud tomonlarining ruhiy akst ettirilishining (shu jumladan, uning texnologik, normativ, axloqiy-ma’naviy jihatlarini) chegaralanganligini bildiradi. “O’z hatti-harakatlarining ijtimoiy xavfliligiga” nisbatan qo’llanilganda, bu o’z hatti-harakatlarining obyektiv va yuridik ahamiyatini anglashning yetarli bo’lmagan realligi (adekvatligi) ni anglashni, normativ va mazmunan baholashning tanqisligi, jinoiy niyatni shakllanishi va amalga oshirilishining tanlash holatidagi salbiy ijtimoiy oqibatni oldindan ko’ra olishlikning cheklanganligi, shuningdek, muallifning fikricha, o’z hatti-harakati natijasida ijtimoiy manfaatlariga yetkazadigan zarar va tug’diradigan xavf imkoniyatlarini to’liq anglamaslikni bildiradi. Bunday tushunish jinoyat alomatlari sifatida umumiy jinoiy-huquqiy talqinidan kelib chiqadi.

Umuman olganda, ushbu talqinga qo’shilgan holda dissertant bir nechta muhim qo’shimchalarni bildirgan:

– O’z hatti-harakatlarining jinoiy-huquqiy xususiyatlarini to’liq ravishda anglamaslik cheklangan aqli rasolikdan dalolat bermaydi va bera olmaydi. Bu to’g’ridan-to’g’ri «Ignorantia juris non excusat, ignoratio facti excusat» umumi huquqiy tamoyilidan kelib chiqadi;

– “Ijtimoiy xavflilikning” to’liq anglamaslik ruhiy sohaning nisbatan balandroq darajasiga tegishli bo’lib, “amaldagi xususiyat”ga o’xshab unchalik chuqur emas, zero o’z harakatlarining shunchaki obyektiv ahamiyatini to’liq anglashni emas, balki uning ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy aloqalarini, ijtimoiy mazmunini nazarda tutadi;

– “o’z hatti-harakatlarining amaldagi xususiyatlarini” to’liq anglamaslik ularning “ijtimoiy xavfliligini” ham to’liq anglamaslikni nazarda tutadi. Agar sabablilik nazariyasidan kelib chiqiladigan bo’lsa, unda (sabab sifatida) o’z hatti-harakatlarining obyektiv ahamiyatini cheklanganligi sababli aloqaning birlamchi bo’g’inining buzilishi ro’y beradiki, bu o’z hatti-harakatlarining oqibatlarini anglashning chegaralanishiga, ya’ni oqibat sifatidagi ijtimoiy xavflilikni chegaralangan anglanishiga olib keladi.

Dissertantning fikricha bunday toifadagi shaxslarni cheklangan aqli rasolar subyektiga qo’shmaslik kerak, chunki onglilik sohaning buzilishi yetarli darajada ifodalanmagan hisoblanadi, eng asosiysi esa, jazo tayinlashda uni yengillashtirish tomonga hisobga olinishi uchun ahamiyatli daraja hisoblanmaydi.

Yuridik mezonning irodaviy belgisi subyektning irodaviy sohasining shunday buzilishi haqida dalolat beradiki, unda u o’z xulq-atvorini to’liq ravishda boshqara oladi. I.A.Kudryavtsevning fikriga ko’ra, bu maqsadga erishishga vositalarning tanlovi adekvatligi va fikrashning yetarli emasligi, ularni amalga oshirishdagi nazoratning buzilishi, vaziyatni baholashni tartibga soluvchi baholashdagi kamchiliklar, to’g’rilovchi ta’sirlar qo’llanilmasligini zaruratini bildiradi.

Taffakkuriy (intellektual) va irodaviy belgilarning nisbatini o’rnatishda ilmiy adabiyotda qayd etiladiki, cheklangan aqli rasolikning yuridik mezonlarini belgilashda ko’rsatilgan elementlarning birini o’rnatish kifoya qiladi. Qonunda ular o’rtasida “yoki” qo’shimchasi turganligi tasodifiy emas. Shu bilan birga, ushbu sharhlar aqli norasolik bilan o’xshashligini ta’kidlash lozim. Aqli norasolikka nisbatan qo’llashda qayd etiladiki, intellektual belgining mavjud bo’lishi irodaviylikning mavjudligi haqida dalolat beradi, ya’ni tafakkurning to’liq bo’lmagani irodani yo’qligini belgilaydiki, bu aqli norasolik toifasi uchun to’g’ri hisoblanadi. Yuridik mezonni (O’zR JK 181 –moddasi bo’yicha) ko’rib chiqish holatida esa, tafakkur (intellek) ancha pasaygan bo’lishi biroq saqlanib qolinishi, demakki intellektual belgining mavjudligi har doim irodaviy belgining mavjudligini ham bildiradi, deb ta’kidlamaslik kerak. Masalan, yengil ruhiy zaiflik holatida psixiatrlar shaxsning o’z hatti-harakatlarini to’g’rilashning pasaygan qobiliyatini belgilashdagi qiyinchiliklarni, ya’ni irodaviy belgini aniqlashdagi qiyinchilikni ta’kidlashadi.

Ayni bir vaqtda, irodaviy belgi intellektual belgi bo’lmaganda ham mavjud bo’lishi mumkin. V.X. Kandinskiy ta’kidlaganidek, erkin tanlovni faqatgina erkin fikrlash holatida qilish mumkin. Shunday holatlar uchraydiki, shaxsning o’z hatti-harakatlarini anglash qobiliyati saqlangan bo’ladi, biroq o’z qilmishidan o’zini tiyish imkoniyati pasayadi. Bu ko’proq ongdani nuqson emas, balki hissiyot sohasidagi nuqson mavjud bo’lgan shaxsiyat buzilishi, piromaniya, kleptomaniya, ludomaniya, dromomaniyada namoyon bo’ladi.

Cheklangan aqli rasolikni faqat yuridik mezonlarning irodaviy elementlari bilangina bog’lash kerak, degan fikr ham uchrab turishini qayd etib, muallif juda qat’iy bo’lmagan holatda, irodaviy belgi yuridik mezonning asosiy mazmuniy jihatini ifoda etadi, deb qayd etadi. Cheklangan aqli rasolikni belgilashda irodaviy xususiyat har doim mavjud bo’lishi kerak va ayni bir paytda intellektual belgi yo’q bo’lishi mumkin. Muallifning qarashicha, bu amaliy ahamiyatga ega bo’lgan juda

muhim aniqlikdir: subyektning jinoyat paytida o'zining xatti-harakatlarini to'g'ri anglash darajasini baholashning deyarli iloji yo'q yoki juda qiyin, biroq, o'z harakatlarini to'liq boshqara olmasligi keyinchalik muhokama qilinadigan jazoni tayinlash paytida uni hisobga olishda ayrim obyektiv baholanish ta'siriga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 18¹-moddasida tibbiy mezon "ruhiy holati buzilgan" atamasi bilan nomlangan. Ayrim olimlar bunday buzilishlarning to'liq ro'yxatini berishga xarakat qilib, unga to'la-to'kis xarakter berganlar. Biroq, bunday ruhiy holat buzilishlarining namunaviy ro'yxatini berishning imkoniyati bor, xolos. Ularning xilma-xilligi va psixiatriya fanining doimiy rivojlanishi tufayli, qonun chiqaruvchi tavsifning ro'yxatli usulidan voz kechdi, chunki bunday qonunchilik tartibga solish oldidan to'liq bo'lmagan bo'lar edi. Shunga qaramay, dissertantning fikricha, tizimli yondashuv yordamida tibbiy mezonning nisbatan differensiallangan tavsifini berish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi, bu esa cheklangan aqli rasolik masalalarini to'liqroq yoritilishiga va ushbu toifaning moddiy-huquqiy mazmuniga chuqurroq kirib borish imkoniyatini beradi.

Va bu yerda muallif cheklangan aqli rasolikning tibbiy mezonlarini tashkil etadigan ruhiy holat buzilishlarini tasniflash zaruratiga duch kelgan. Ayrim mualliflar, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 181-moddasida keltirilgan tasniflashga: surunkali ruhiy holati buzilganligi, vaqtinchalik, aqliy zaiflik, ruhiyatning boshqa kasallik holatiga asoslanadilar. Aslida, qonun chiqaruvchi, o'sha ruhiy holat buzilishlarini, biroq ta'sir darajasi ancha past bo'lgan va o'z xatti-harakatlarini anglashga va uni boshqarishga to'liq qobiliyatsizlikka olib keladigan buzilishlarni nazarda tutadi. Mantiqan olib qaraganda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 18-moddasida nazarda tutilgan faqatgina ongli-irodaviy qobiliyatlarni pasayishiga olib keladigan har qanday ruhiy buzilishlarning mavjudligi, cheklangan aqli rasolikning tibbiy mezonlari hisoblanadi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 18-moddasida nazarda tutilgan har qanday ruhiy buzilishlar o'zining xususiyatlari tufayli og'ir, chuqur bo'ladi va albatta, ongli-irodaviy qobiliyatlarning to'liq yo'qotilishiga (shezofreniya (turg'un remissiya davri bundan mustasno), chuqur, og'ir va mo'tadil aqliy zaiflik va boshqalar) olib keladi.

Dissertatsiyaning **"Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holat buzilgan shaxslar jinoiy javobgarligi masalalari"** deb nomlangan uchinchi bobida aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazo tayinlash hamda tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlash atroflicha tahlil qilingan.

Tadqiqotchining fikricha, sud amaliyotida vujudga kelishi mumkin bo'lgan va jazoni tayinlashda ushbu kategoriya hisobga olinishining bir nechta yondashuvlarini keltirish mumkin.: 1) Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda shaxsning ruhiy holati buzilishi jazoni tayinlashda (jazo turi va miqdorini belgilashda) hisobga olinmaydi, faqat sud-psixiatriya xulosasining tegishli tavsiyalari mavjud bo'lgan taqdirda TYMCH tayinlash masalasini hal qilish uchun muhim boladi.; 2) Sud rasmiy ravishda jazo tayinlashda aqli norasolikni istisno qilmaydigan ruhiy buzilishni hisobga olishini ta'kidlaydi, ammo bu nimada

ifodalanishini aniqlashtirmaydi, faktik jihatdan bu jazoga ta'sir qilmaydi; 3) Jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida haqiqatda hisobga olish.

Dissertantning fikricha, ushbu toifadagi ishlarda quyidagi yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida to'g'ridan-to'g'ri, ammo boshqa yengillashtiruvchi holatlar bilan birgalikda ko'rsatish. Masalan: aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish, birinchi marta sudlanganlik, sog'liq holati (aqli rasolikni istisno qilmaydigan ruhiy buzilish).

Shuni ta'kidlash kerakki, sud aqli rasolikni istisno qilmaydigan ruhiy buzilishni yengillashtiruvchi holat sifatida aniq ko'rsatmasligi (sud amaliyotining bir xilda bo'lmasligini hisobga olgan holda), lekin haqiqatda jazoni pastki chegara bo'yicha tayinlashi, buni shaxs va sog'ligi holati to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek jabrlanuvchining noqonuniy xatti-harakatlari bilan asoslantirishi mumkin.

Agar voyaga yetmagan shaxs aqli rasolikni istisno qilmaydigan ruhiy buzilishdan aziyat cheksa, sudlar, qoida tariqasida, jazoni kamaytirishi lozim. Bunday holatlarning barchasida voyaga yetmagan bolaning ruhiy buzilishi yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olinadi.

Masalan, voyaga yetmagan shaxs hissiy-irodaviy buzilishlarga ega yengil darajadagi aqliy zaiflikka ega, buning natijasida u o'z harakatlarini to'liq anglay olish va ularni boshqara olishga qobil bo'lmaganida sud ushbu holatni hisobga olishi kerak.

